



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

THE ROLE OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN STRENGTHENING INTERETHNIC HARMONY IN UZBEKISTAN

Shaxriddin Ziyadullayevich Sharipov
Associate Professor at Zarmed University
shaxriddin.domla@mail.ru
Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Republic of Uzbekistan, national and cultural centers, interethnic harmony, peace, stability, development.

Received: 19.03.26

Accepted: 20.03.26

Published: 21.03.26

Abstract: This article presents a scientific and historical analysis of the socio-political significance of national cultural centers in Uzbekistan and their role in ensuring peace and stability. It also examines the types of activities carried out by national cultural centers and their content.

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY-MADANIY MARKAZLARNING TUTGAN O'RNI

Shaxriddin Ziyadullayevich Sharipov
Zarmed universiteti dotsenti
shaxriddin.domla@mail.ru
Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

<p>Kalit so'zlar: Respublikasi, milliy-madaniy millatlararo totuvlik, tinchlik, taraqqiyot.</p>	<p>so'zlar: milliy-madaniy totuvlik, tinchlik, taraqqiyot.</p>	<p>O'zbekiston markazlar, barqarorlik,</p>	<p>Annotatsiy: Ushbu maqolada O'zbekistondagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ilmiy jihatdan tarixiy tahlil qilingan. Shuningdek, milliy-madaniy markazlar tomonidan o'tkazilgan tadbirlar va ularning mazmun mohiyati haqida fikr yuritilgan.</p>
--	---	---	---

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В УКРЕПЛЕНИИ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шахриддин Зиядуллаевич Шарипов

Доцент университета «Zarmed»

shaxriddin.domla@mail.ru

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Республика Узбекистан, национально-культурные центры, межэтническая гармония, мир, стабильность, развитие.

Аннотация: В данной статье представлен научно-исторический анализ социально-политического значения деятельности национально-культурных центров в Узбекистане, их роли в обеспечении мира и стабильности. Также рассматриваются виды деятельности, проводимые национально-культурными центрами, и их содержание.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan yangi tashabbuslarning paydo bo‘lishi hamjihatlikning yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir”[1].

O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiladigan turli millat va elatlarining mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida ishtirok etishini ta’minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Shuningdek, barcha millat va elatlar sa’y-harakatlarini mamlakat suverenitetini mustahkamlash va barqaror rivojlantirish, davlatning hududiy yaxlitligini mustahkamlash maqsadlariga erishish g‘oyasi atrofida birlashtirish, kuchli fuqarolik jamiyatini, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta’minlash, millatlararo munosabatlar, chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish, ularning tili, madaniyati, an’analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, turli tillardagi ommaviy axborot vositalari rivojini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekistonda yashab o‘tgan va istiqomat qilayotgan, jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga bebaho hissa qo‘shgan atoqli namoyandalar ma’naviy-madaniy va ilmiy merosini targ‘ib qiluvchi materiallarni nashr etish, “xalq diplomatiyasi” mexanizmlaridan foydalanish orqali xorijiy mamlakatlarning fuqarolik jamiyatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va do‘stlikni mustahkamlash, xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalari bilan “xalq diplomatiyasi” asosida aloqa o‘rnatish va uni izchil

rivojlantirish, mamlakatda yashayotgan millatlarning tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish"[2] milliy-madaniy markazlarning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi.

Ushbu maqsad va vazifalarga erishishda milliy-madaniy markazlar musiqa, teatr studiyalari, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr va rassomchilik san'ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport o'yinlarini o'rganish, milliy madaniyat, til, milliy urf-odatlarni o'rganish va targ'ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlar tashkil etadi.

O'zbekistonda dastlabki milliy-madaniy markazlar XX asrning 80-yillarida koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan mamlakatning turli viloyatlarida tuzildi. Shundan so'ng, ushbu markazlar mustaqillik yillarida asta-sekin rivojlantirilib borildi. Mustaqillik yillarida ularning samarali faoliyati uchun sharoitlar yaratilib bordi. Bu esa o'z navbatida Respublikada milliy-madaniy markazlarning yilma yil soni ortib borishiga olib keldi. Xususan, agar 1992-yilda O'zbekistonda 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003 yilga kelib esa 135 taga yetdi[3, 546].

2025 yil holatiga ko'ra mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 150 dan ortiq milliy-madaniy markazlar yetakchi rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib, amaliy va uslubiy yordam berayotgani alohida diqqatga sazovordir.

Qo'mita mamlakatimizning barcha hududlarida o'tkazilayotgan yorqin tadbirlari asosida madaniy va ijtimoiy hayotimizni yanada teran ma'no-mazmun bilan boyitmoqda, O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlamoqda. MDH davlatlari o'rtasida faqat O'zbekistonda shunday tuzilma tashkil etilgani e'tiborga loyiqdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda Yangi O'zbekistonda bir oila bo'lib istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari turli soha va tarmoqlarda o'z mehnatlari bilan rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar. Ularning ko'pchiligi fidokorona mehnatlari davlat tomonidan munosib rag'batlantirilib, mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlarning 120 dan

ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni berildi. "Ularning orasida Navoiy viloyati Konimex tumanidagi qoraqalpoq milliy-madaniy markazi faoli Nurkul Bazarbayeva, Respublika baynalminal madaniyat markazi direktorining o'rinbosari Sergey Mironov, Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani tatar milliy madaniy markazi raisi Anisya Gataullina, Sirdaryo viloyati rus milliy-madaniy markazi raisi Faina Golubsova, Xorazm viloyati qozoq milliy-madaniy markazi raisi Po'latbek Izyumov, Jizzax viloyati koreys milliy-madaniy markazi raisi Oleg Kim, Farg'ona viloyati yahudiy milliy-madaniy markazi raisi Semyon Abdurahmonov, Toshkent shahridagi itva milliy-madaniy markazi raisi Lidiya Dovidaytis, Samarqand viloyatidagi nemis milliy-madaniy markazi raisi Natalya Kayzer, Nukus shahridagi "Slavutich" ukrain milliy-madaniy markazi raisi Olga Mirones, Qashqadaryo viloyatidagi tojik milliy-madaniy markazi raisi Abdurasul Ergashev, Toshkent shahridagi "Svitanak" belorus milliy-madaniy markazi raisining o'rinbosari Nina Shubnikova, Qashqadaryo viloyatidagi arab milliy-madaniy markazi raisining o'rinbosari Niyozmuhammad Panjiyev, Buxoro viloyatidagi turk milliy-madaniy markazi raisi o'rinbosari Juma Shukurov, respublika ozarbayjon milliy-madaniy markazining "Ozarbayjon qizlari" ansambli badiiy rahbari Kaykep Aliyeva, Qoraqalpog'iston Respublikasi turkman milliy-madaniy markazi faoli Arazmuxammet Abayev, Andijon viloyatidagi qirg'iz milliy-madaniy markazi faoli Umutoxon Mamataliyeva, respublika arman milliy-madaniy markazi faoli Georgiy Saakov va boshqalar bo'lib, mamlakatimizni rivojlantirishga, uning ma'naviy va insonparvarlik asoslarini mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda"[4].

O'z mehnat faoliyati bilan birga turli hududlardagi milliy-madaniy markazlar faoliyatida faol ishtirok etayotganlar "xalq diplomatiyasi" mexanizmi asosida tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlar bilan yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

"Respublika milliy-madaniy markazlarida turli yubiley sanalarini o'tkazish va nishonlash amaliyotining joriy etilganligi millatlararo totuvlikni ta'minlashni mustahkamlashdagi o'ziga xos madaniy-ma'rifiy jarayonlarda ham o'z aksini topdi"[5, 57].

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlarning asosiy qismi Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, ularning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda tumanlar bo'limlari ham tashkil etilgan. Hududlardagi madaniy markazlar o'z faoliyatini markaziy bo'limlar ish faoliyati asosida olib boradilar. Ana shunday samarali faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlardan biri bu koreys milliy madaniy markazi hisoblanadi. "O'zbekiston

koreys madaniy markazlari uyushmasi 1991-yil 12-yanvar kuni tashkil etilgan"[6]. Markazning asosiy vazifalaridan biri bu koreys millatining ona tilini, an'analarini, urf-odatlarini, tarixini va madaniyatini saqlab qolish hamda o'sib kelayotgan kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir. Markaz bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm, Farg'ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan jami 21 nafar milliy-madaniy markazlarni faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda.

O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi mamlakatimizdagi barcha koreys millati vakillarini birlashtirishga, o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga, ona tilini, madaniyatini, urf-odatlarini, an'analarini va o'zligini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, forumlar, festivallar va uchrashuvlar o'tkazib kelmoqda. "Mamlakatimizning faol koreys millati vakillari har yili Koreyada bo'lib o'tadigan turli xalq san'ati festivallari, bayramlari va forumlarida ishtirok etib keladilar"[7, 206].

O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi faollari "Navro'z", "Sabantuy", "Maslenitsa", "9 may – Xotira va qadrlash kuni", "Tano" yoz uchrashuvi bayrami, "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kuni", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni", "Solla" koreys milliy oy taqvimiga ko'ra yangi yil bayrami, "Chusok" hosil bayrami kabi davlat va koreys milliy bayramlarini keng nishonlab keladilar.

2019-yildan boshlab O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi "O'zbekiston koreyslari" gazetasini rus va koreys tillarida chop eta boshladi. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining kanallarida R.Pakning "Chinsen" mualliflik dasturi efirda namoyish etib kelinadi.

1992-yilda yurtimizda 10 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib borgan bo'lsa, hozirgi kunda ular 150 dan ortiqni tashkil qilmoqda. Mustaqillik tufayli jamiyatimizning barcha sohalarida bo'layotgan tub sifat o'zgarishlar millatlar va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda shulardan to'liq foydalangan holda milliy va millatlararo munosabatlar sohasidagi barcha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida keng miqyosda ijobiy ishlar qilinmoqda. Jumladan, boshqa millat vakillarining ona tilida ta'lim olish borasidagi ehtiyojlari to'laroq qondirilmoqda. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniy va ma'naviy boyliklarni taqsimlash masalalarida ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanmoqda. O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tarixiy Vatanlari bilan aloqalari mustahkamlanmoqda. Milliy tillarda ro'znomalar, kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar nashr etilmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlarini hisobga olib televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlar hajmi kengaytirilmoqda. Jahonning ozchilik davlatlarida

kuzatiladigan holat, yurtimizda ta'lim 7 tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qirg'iz va qozoq) olib boriladi. Yana bir diqqatga molik jihat – Respublikadagi ommaviy axborot nashrlari ham qardosh xalqlar tilida olib boriladi, turli tillarda gazeta va jurnallar chop etiladi, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida boshqa millat vakillariga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bu esa yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarning tili, urf-odatlarini, an'analarini e'zozlanayotgani, bu borada milliy-madaniy markazlarning milliy qadriyatlarni tiklash, boyitish yo'lida imkoniyatlar eshigini ochuvchi maskan sifatida samarali faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda faoliyat olib boratyogan milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlikni ta'minlashda hamda davlatlararo o'zaro madaniy munosabatlarni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada milliy-madaniy markazlarga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, milliy-madaniy markazlar o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlarini mamlakatda erkin amalga oshirish bilan birga O'zbekiston xalqlarining turli milliy va umumdavlat tadbirlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga hamda "xalq diplomatiyasi"ni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, milliy-madaniy markazlar va ularning hududiy bo'limlari "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni" va boshqa bayramlarda faol ishtirok etmoqda. Milliy-madaniy markazlarning faol a'zolari hisoblangan hamda turli sohalaridagi fidokorona mehnati bilan davlat va jamiyat rivojiga munosib hissasini qo'shib kelayotgan turli millat va elat vakillari respublika rahbariyati tomonidan orden va medallar bilan taqdirlanib, rag'batlantirilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/198> (29.01.2018)

2.Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/4597662>

3.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. М ҳарфи. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б.546.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/198> (29.01.2018)

5.Davlatova S. Millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. -Toshkent: 2022. B.57

6.O‘zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi // <http://interkomitet.uz/mita-aida/millij-madaniy-markazlar/zbekiston-korejs-madaniy-markazlari-ujushmasi/?lang=oz>
(30.09.2022)

7.Шин В.Н. Независимость в судьбе корейской диаспоры в Узбекистана // Узбекистан – страна толерантности. –Ташкент: Ўзбекистон. 2007. – С. 206.